

UDK: 37.026.6

## PEDAGOG-O'QITUVCHINING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI

**Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna**

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi  
yo'nalishi 1-kurs magistranti*

*Tel: +998941521147*

*[matlubaaliyeva37@gmail.com](mailto:matlubaaliyeva37@gmail.com)*

*ORCID ID: [0009-0004-1370-7002](https://orcid.org/0009-0004-1370-7002)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada pedagog-o'qituvchining ta'lim sohasidagi o'rni, asosiy fazilatlari, bigingi kunda o'qituvchilar uchun yaratib berilayotgan sharoitlar, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar haqidagi ma'lumotlarni bilib olish mumkin.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ta'lim-tarbiya, pedagog, o'qituvchi, barkamol avlod, tarbiya, islohotlar, Uchinchi Renessans, jamiyat.

## РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация:** В данной статье можно узнать о роли педагога-преподавателя в сфере образования, основных качествах, условиях, создаваемых в настоящее время для учителей, проводимых реформах в сфере образования.

**Ключевые слова:** молодежь, образование-воспитание, педагог, учитель, гармоничное поколение, воспитание, реформы, третье возрождение, общество.

## THE ROLE OF THE TEACHER IN EDUCATION

**Annotation:** In this article, it is possible to find out information about the role of the educator-teacher in the field of education, the main qualities, the conditions created for teachers on biging day, the reforms carried out in the field of Education.

**Keywords:** youth, education, pedagogue, teacher, harmonious generation, education, reforms, Third Renaissance, society.

## KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda ta'lim-tarbiya masalasi dolzarb masala sifatida mamlakatimizning oldida turgan muhim masalalardan biridir. Buning yaqqol misoli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bundan ikki yil avval O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini

yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak"[1], deb yurtimiz ta'lim-tarbiya sohasining strategik vazifasini belgilab bergan edi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati pedagog-o'qituvchi va yosh avlodni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi. Tadqiqot davomida ilmiy, nazariy, uslubiy adabiyotlar, xorij va o'zbek olimlarining qator ilmiy maqolalari, tezislari va adabiyotlarini nazariy tahlili va umumlashtirish, psixologik-pedagogik kuzatish, qiyosiy-pedagogik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan. Buyuk allomalarimizning pedagoglar faoliyatiga oid yangi g'oyalar, yangicha yondashuvlarni ta'limga joriy qilish bo'yicha tinmay izlanishlar olib borganlarini ko'rish mumkin. Sharqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad al Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulla Avloniy, Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlar o'z davrining yangi ilg'or pedagogik g'oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta'lim-o'sha davrdagi eng samarali usullar hisoblangan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida o'rttirilgan tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or pedagog-o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boorish lozim. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri –o'qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib, uning faoliyati orqali bu g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi. O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli,

axloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan rivojlantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni bajarishda esa pedagog-o'qituvchining faoliyati xilma-xildir.[2]

Ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri uchun poydevor yaratish o'z-o'zidan pedagogika sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi. Pedagogika fani jamiyat tomonidan belgilangan talablar asosida inson kapitalini yaratishga xizmat qiladi. Buning uchun esa pedagogika fani jamiyat rivojining strategiyasi va ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladigan ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl, metod, vosita va texnologiyalarini ishlab chiqishi hamda uni amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilab berishi lozim.[3] Shuningdek, davlat rahbarimizning yangi islohotlarni xalqqa yetkazish maqsadida o'tkazgan video yig'ilishlarida ham pedagogik ta'lim sohasida keng miqyosdagi o'zgarishlar va yangilanishlar bilan hamohangdir. Maktab ta'limini rivojlantirish, eng avvalo, zamonaviy fikrlaydigan, kreativ va tashabbuskor pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni talab etadi. Yangi taraqqiyot sari odimlar ekanmiz, maktab ta'limining drayveri — o'qituvchilarni tayyorlashga mas'ul pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun Prezidentimiz tomonidan olg'a surilgan "Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda" g'oyasi dasturulamal bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

## XULOSA

O'qituvchi ya'ni ustoz bo'lish yaxshi, lekin o'z navbatida mas'uliyat va sharaflilik kasb hamdir. O'qituvchini jamiyatdagi barcha soha vakillariga ta'lim bergan va ularga mana shu kasbni egallashlariga hissa qo'shgan shaxs sifatida e'tirof etish lozim. Pedagog-o'qituvchi yosh va barkamol avlodning kamolotida, ularga ta'lim va tarbiya berishda yetakchi shaxs bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda o'qituvchining o'z oldiga qo'yan maqsadi albatta, yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishlari, jumladan, ma'naviy-axloqiy, siyosiy jihatdan tarbiyalash, ular ongiga tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot tamoyillarini singdirish, tanqidiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirish uchun avvalo pedagogik ishni ilmiy asosda tashkil qilish lozim. Buning uchun o'qituvchining istak va qiziqishlarini hisobga olish, uning intilishi va

boshqa tashqi omillarini bir – biriga uyg'unlashtirib, kasbi va shaxsining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faolligini oshirishni nazarda tutish kerak.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyevning yangi islohotlarni xalqqa yetkazish maqsadida o'tkazgan video yig'ilishlaridagi nutqi.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlanova, N.Voxidova, N.Raxmanqulova. Toshkent. 2010. 26-bet
3. Pedagogik mahorat. Darslik: A.A.Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'limvazirligi.Toshkent., "Iqtisod -moliya, 2011, 420 bet.
4. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. R.Mavlonova, D.Abdurahimova..-Toshkent., "Fanva texnologiya", 2009,176 bet.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2003.
5. cuberleninka.ru